O'zbekistonda natijaga yo'naltirilgan budgetlashtirish mexanizmini rivojlantirish.....	1023
Primova Nigora Ikrom qizi	
Kichik biznes korxonalarida B2B bozorini tizimli tashkil etishning uslubiy jihatlari.....	1030
Zakirova Gulnoza Qudratovna	
Current Trends in Agrotourism in Uzbekistan: Demand, Needs, and Motives of Agritourists .....	1034
Iroda Abdieva Gayrat kizi	
Современное состояние достойного труда специалисов транспорта в условиях цифровизации.....	1039
Абдуллаева Нигора Шамсиддиновна	
Обоснование методов оценки совершенствования конкурентоспособности предприятий легкой промышленности .....	1043
Тухтасинова Мухайё Мирзасултоновна	
Проблемные аспекты трансформации финансовой отчетности бизнеса юридических лиц .....	1049
Шин Инесса Олеговна	
Cross-Cultural Management is a Separate Field of Science and Discipline.....	1055
Umarova Zulaykho, Rakhmanova Zilola	
Tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etish tahlili.....	1058
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni .....	1062
Jo'rayev Ilhomjon Kamoldinovich	
Iqtisodiy inqiroz davrida kredit xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy modellari....	1066
Kurbanov Rustam Radjabovich	
Raqamli transformatsiya konsepsiyalari va uning ahamiyati.....	1071
Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari.....	1078
Xalilova Shoxsanam G'ayrat qizi	
"EIZ" hududida soliq va bojxona rejimlari uchun imtiyozlarni tahlil qilish .....	1083
Xusanov Durbek Nishonovich, Djurayeva Iroda Bahrom qizi	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini lizing asosida moliyalashtirish istiqbollari.....	1087
Aliqulov Mehmonali Salahiddin o'g'li	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda sun'iy texnologiyalarning o'rni .....	1092
Xonova Nodira Fazliddinovna	
O'zbekistonning investitsiya muhitini jozibadorligini oshirish yo'llari.....	1097
Sotimov Yunusbek Turg'unboy o'g'li	
"Yashil" sanoat siyosatini yuritish zaruriyati: bozor nuqsonlaridan milliy xavfsizlikkacha.....	1102
Muqimov Sherali Axmadali o'g'li	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatining hozirgi holati tahlili va rivojlantirish istiqbollari.....	1107
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	



Improving the Methodology of Econometric Analysis of the Efficiency of Financial Activity of Agricultural Agroclusters of Uzbekistan.....	1112
Ochilov Ilhom Sayitkulovich	
O'zbekistonda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va "Uglerod neytralligiga erishish" strategiyalarining ahamiyati ....	1120
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li, Bazarov Shodi Abdirahmonovich	
Oziq-ovqat mahsulotlari brend qiymatini oshirishda marketing strategiyalari.....	1127
Xodjiev Ibroxim Ikramovich	
Aktual'nye voprosy ukrepleniya doveriya naseleniya k bankovskoy sistemye Respublikи Uzbekistana	1133
Ruziboeva Nilufar Tulkin kizi	
Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun mintaqaviy siyosat vositalarining xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1139
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mintaqa korxonalarining rivojlanish potensialini shakllantirishda innovatsion marketingning o'rni va mohiyati .....	1146
Axmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tokomillashtirish yo'llari.....	1150
Samandarova Dilfuza Mansurovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari: mavjud muammolar va yechimlar.....	1157
Fatilloyev Farrux Farhod o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'iga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlili .....	1162
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishslash samaradorligini oshirish yo'llari ("Agrobank" ATB misolida).....	1171
Yusufov Xurshidjon Sharifovich	
Namangan viloyatida don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti.....	1176
Bahriiddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	



# NAMANGAN VILOYATIDA DON VA DON MAHSULOTLARI NARXINI SHAKLLANISHINING BOZOR TADQIQOTI

**Bahiddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li**

Namangan muhandislik-texnologiya instituti  
"Iqtisodiyot" kafedrasи assisenti

**Annotatsiya:** Oziq-ovqat xavfsizligi, bozorlarda narxlar barqarorligini ta'minlash bugun dunyo mamlakatlarini birdek o'yulantirayotgan masalalardan biri. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx-navoni bozor tamoyillari asosida belgilanadi. Ya'ni, talab va taklif yasosida belgilanib, bugun qaysi mahsulot qanchadan sotilishini bir yoki bir necha kun oldin bashorat qilishning imkoni yo'q. Faqat mamlakat tomonidan bozor narxlarini barqarorlashtirish choralarini ko'rish mumkin xolos. Ushbu maqolada shu va shunga o'xshash masalalar borasida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** don, un mahsulotlari, g'alla, fermer ho'jaligi, birja, narx-navo, don va un mahsulotlari, boshoqli don ekinlari.

**Abstract:** Ensuring food safety and price stability in the markets is one of the issues that countries of the world are thinking about today. In a market economy, prices are determined based on market principles. That is, it is impossible to predict which product will be sold today and how much it will cost one or several days in advance, based on supply and demand. Only the country can take measures to stabilize market prices. This article discusses these and similar issues.

**Key words:** grain, flour products, grain, farmer's agriculture, Stock Exchange, price, grain and flour products, grain crops with cobs.

**Аннотация:** Обеспечение продовольственной безопасности и стабильности цен на рынках – один из вопросов, над которым сегодня думают страны мира. В рыночной экономике цены определяются на основе рыночных принципов. То есть невозможно спрогнозировать, какой товар будет продан сегодня и сколько он будет стоить на один или несколько дней вперед, исходя из спроса и предложения. Только страна может принять меры по стабилизации рыночных цен. В этой статье рассматриваются эти и подобные вопросы.

**Ключевые слова:** зерно, мучная продукция, зерно, ферма, обмен, цена, зерно и мучная продукция, колосовые зерновые культуры.

## KIRISH

Mamlakatimizda 2022-yil 1-iyundan boshlab don va un mahsulotlarini birja savdolari orqali erkin narxlarda sotish yo'liga qo'yildi. Prezidentimizning 2022-yil 28-maydagи "G'allani yetishtirish va sotishda bozor tamoyilini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan g'allani davlat tomonidan sotib olish va sotishda bozor narxlariga o'tilib, g'alla-chilik klasterlari va fermerlarga bug'doyni bozor narxida to'liq erkin sotish huquqi berildi.

Bu fermerlarning klasterlar uchun o'z mahsulotlarini bozor narxida sotishlariga imkon beradi. Yangi tizim un va non mahsulotlari narxiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunda fermer davlat xarajatlarning bir qismini o'z bo'yiniga olib, tadbirkorga bug'doyni arzon narxda bermaydi. Ishlab chiqaruvchilar bug'doy va un mahsulotlarini birja orqali erkin narxlarda sotib olib, tayyor mahsulot narxini ham xarajatlaridan kelib chiqqan holda o'zları belgilaydi. Bu jarayonda ayrim tadbirkorlar bundan foydalanib, narxlarni keskin oshirib yuborishi ehtimoli ham yo'q emas.

Shu bois, davlatimiz rahbari topshirig'iga asosan yangi tizim shaffofligi, to'laqonli va adolatli ishlab ketishini nazorat qiluvchi Bosh prokuror boshchiligidagi Respublika shtabi tuzilgan. Hozirda 21 ta vazirlik-idoralarning rahbarlaridan iborat shtabning barcha hududlarda hududiy bo'limlari to'liq tarkibda ish olib boryapti. Ular har kuni g'allani sotib olish va sotishda bug'doy yetishtiruvchilar manfaatdorligini ta'minlash, ichki bozorda un va don mahsulotlari narxining o'sishi va taqchilligining oldini olish, muammolarni tezkor bartaraf etish bo'yicha ishlar olib bormoqda.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARI

Sohaga doir iqtisodiy adabiyotlarda xarajatlari, ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarish bo'lmagan xarajatlari hamda tannarx tushunchalari qo'llanilgan.

Umumiy iqtisodiy ma'noda ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi tushunchalariga Sh.Shodmonov tomonidan quyidagicha ta'rif keltirilgan: "Ishlab chiqarish xarajatlari – korxonaning mahsulot ishlab chiqarish maqsadlarida, iqtisodiy resurslar sotib olish uchun qilgan pul sarflari. Firma o'z faoliyatini bozordan moddiy resurslar, ya'ni asbob-uskuna, dastgohlar, transport va aloqa vositalari, xom-ashyo, yoqilg'i, har xil materiallarni, mehnat bozoridan ishchi kuchini sotib olishdan boshlaydi. Shunga muvofiq holda ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga xom-ashyo, asosiy va yordamchimateriallar, yonilg'i va energiya xarajatlari, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqiva ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, foiz to'lovleri va b. xarajatlardan kiradi. Ishlabchiqarish xarajatlari qilingan barcha xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulottannarxini tashkil qiladi".

M.Boltaboyev "Tannarx, mahsulot tannarxi – korxonaning maqsulot ishlab chiqarish. va uni sotish hamda ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish uchun qilgan jami joriy xarajatlarining pul shaklidagi ifodasi. Tovar ishlab chiqarishda tannarxning muhim elementlari – chetdan olinadigan xom-ashyo, asosiy materiallar, elektr-energiya resurslari chiqimlari; asosiy va qo'shimcha ish haqi; ijtimoiy sug'urta ajratmalar; amortizatsiya ajratmalar va b. sarf xarajatlardan." - deb ta'rif keltiradi.

Rossiya Soliq Kodeksida (1998) quyidagicha ta'rif keltirilgan: "Tannarxni belgilovchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari mahsulot ishlab chiqarishda foydalanilgan tabiiy resurslar, xom-ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i, energiya, asosiy fondlar, mehnat resurslari va ekspluatatsiya bo'yicha boshqa xarajatlar, shuningdek ishlab chiqarish bo'lmagan xarajatlarning qiymatidan tashkil topadi".

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida adabiyotlarni mantiqiy tahlil qilish asosida xulosalar qilindi. Internet sahifasidagi ma'lumotlardan foydalanildi. Me'yoriy-huquqiy hujjatlarda keltirilgan vazifalar metodologik asos qilib olindi. Matematik algoritmlari, ketma-ketliklardan foydalanildi. Maqolani tayyorlashda guruhlash, taqqoslash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistika, iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

G'allani qabul qilish va uni sotishda joriy etilgan bozor mexanizmlari, avvalo, aholimizning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda g'alla yetishtiruvchilarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Mamlakatimizda olib borilayotgan isloxaqtar natijasida don va un mahsulotlarini bozordagi narx-navoni davlat belgilamaydi – buni bozor talabining o'zi belgilaydi. Bu jarayonda mamlakatimiz asosiy fazifikasi taklifni ko'paytirish, buning uchun tadbirkorlarni ko'proq bozor iqtisodiyotida o'z o'rnnini topishi, birja savdolarida ishtiroy etib, mahsulotini erkin sotishi, xarajatlarini kamaytirishga ko'maklashishdan iborat. Chunki bozorda talabga nisbatan taklif ko'p bo'lsa, narx barqarorligi taminlanadi va sog'lom raqobat muhitini shakllanadi.

Mamlakatimizda aholini don va un mahsulotlariga bo'lgan talablarini qondirish maqsadida 2022-yilda 1 million 32 ming hektar maydonda g'alla ekilib, 7,5 million tonnadan ortiq bug'doy yetishtirilishi belgilangan edi. Ushbu ko'rstanich 2021-yilga nisbatan 1,5 million tonnaga ko'p bo'lgan.

Yangi tizimga ko'ra, g'allaning bir kilogrammi dastlabki narx sifatida 2022-yil 1-iyundan boshlab 3 ming so'mdan qabul qilish boshlandi hamda kelgusida birja narxlaridan kelib chiqqan holda, ushbu narxga yana qo'shimcha haq to'lab berilishi barcha dehqon, fermerlar hamda klasterlar tomonidan ko'taringki ruhda qabul qilinish boshlandi.

Bugungi kunda Namangan viloyatida 3 ta yirik korxona don va don mahsulotlarini qayta ishlamoqda. 2022-yil holatiga "Namangan don mahsulotlari" AJga tumanlar kesimida boshoqli donlarni yetishtirib berish uchun Mingbuloq tumanidan 22155 tonna don shundan urug'likka 1440 tonna, tovar don 17304 tonna vaqtinchalik saqlash (birja savdosiga sotish uchun) 4851 tonna reja qilingan bo'lsa, Namangan tumanidan don 15855 tonna, shundan urug'lik 3220 tonna, tovar don 9868 tonna vaqtinchalik saqlash (birja savdosiga sotish uchun) 2767 tonna rejalashtirilshan. Kosonsoy, Yangiqo'rg'on tumanlarida yetishtirilgan jami donlar dan urug'lik uchun ajratilmaydi. Ushbu donlar faqat tovar don va birja savdosiga sotish uchun yo'naltiriladi.

"Uchqo'rg'on don mahsulotlari" AJga Uychi, Uchqo'rg'on, Norin, Chortoq tumanlari don mahsulotlarini yetkazib beradi. Ushbu tumanlar orasida Uchqo'rg'on tumanini eng ko'p reja bo'yicha 22304 tonna don yetkazib beruvchi xisoblanadi. Ya'ni tovar don 14814 tonna, urug'likga 3337 tonna, vaqtinchalik saqlash (birja savdosiga sotish uchun) 4153 tonna bug'doy yetkazib beradi. Chortoq tumanini yulg'dorchilikga ixtisoslashganligi sababli reja bo'yicha tovar don 3976 tonna, vaqtinchalik saqlash (birja savdosiga sotish uchun) 1115 tonna, jami 5091 tonna bug'doy yetkazib beradi.



“Pop don mahsulotlari” AJga don mahsulotlaridan Pop va Chust tumanlari yetkazib beruvchi xisoblanadi. Korxonaga eng katta miqdorda boshqoli donlarni yetkazib beruvchi Pop tumani xisoblanib reja bo‘yicha tovar don 19063 tonna, urug‘lik don 1270, vaqtinchalik saqlash (birja savdosiga sotish uchun) 5344 tonna, jami 24407 tonna yetkazib beradi.

Namangan viloyati tumanlarida fermer va qishloq xo‘jaligi korxonalarida 2021-yilda jami boshqoli don ekinlari ishlab chiqarish 462912 tonnani, 2020-yilda 441607 tonnani, 2019-yilda 481311 tonnani, 2018-yilda 471118 tonnani tashkil qilgan. Boshqoli don ekin maydonlari xajmi 2018–2019-yillarda 76500 hektar yer maydonni tashkil qilgan bo‘lsa 2020-yila 74000, 2021-yilga kelib 67750 hektarga qisqardi. Bundan ko‘rinadiki viloyatda ekin maydonlari Kosonsoy, Chortoq, Yangiqo‘rg‘on tumanlarida qisqarib, fermerlar yerlarini bog‘dorchilikka o‘zgartirayotgani aniqlashimiz mumkin. Viloyatda boshqoli don yetishtirish uchun eng katta hududni Chust va Pop tumanlari hisoblanadi, ularning ekin maydonlari 10 ming hektardan ortiqni tashkil qiladi.

**1-jadval:** Namangan viloyati va tumanlarida 2022-yil hosildan boshqoli don tayyorlash rejasi<sup>1</sup>

No	Tumanlar	Tovar don	Urug‘lik don	Vaqtinchalik saqlash (birja savdosiga sotish uchun)	Jami
<b>“Namangan don mahsulotlari” AJ</b>					
1	Mingbuloq	17304	1440	4851	22155
2	Namangan	9868	3220	2767	15855
3	Kosonsoy	11196	0	3139	14334
4	To‘raqo‘rg‘on	10284	1575	2883	14742
5	Yangiqo‘rg‘on	4273	0	1198	5471
<b>Korxona jami</b>		<b>52924</b>	<b>6235</b>	<b>14837</b>	<b>72557</b>
<b>“Uchqo‘rg‘on don mahsulotlari” AJ</b>					
1	Uychi	12766	3050	3579	19394
2	Uchqo‘rg‘on	14814	3337	4153	22304
3	Norin	8701	2202	2439	13343
4	Chortoq	3976	0	1115	5091
<b>Korxona jami</b>		<b>40257</b>	<b>8589</b>	<b>11286</b>	<b>60132</b>
<b>“Pop don mahsulotlari” AJ</b>					
1	Pop	19063	1270	5344	24407
2	Chust	17815	846	4994	23655
<b>Korxona jami</b>		<b>36877</b>	<b>2116</b>	<b>10338</b>	<b>48061</b>
<b>Viloyat jami</b>		<b>130059</b>	<b>16940</b>	<b>36461</b>	<b>180750</b>

Namangan viloyatida un mahsulotlari narxi bozordagi talab va taklifni asosida shakllanadi. Mamlakat aholisi bir yilda 91,2 kg un mahsulotlari iste’mol qiladi. Un mahsulotlarining bir odamga 1 oydagagi o‘rtacha iste’moli 7,6 kg ni tashkil qiladi. Mamlakatda bir iste’molchi uchun 2015-yilda un mahsulotlariga 1 oydagagi o‘rtacha harajat 14,5 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib bu ko‘rsatkich 34,2 ming so‘mga 235,8 foizga o‘sdi. Bundan ko‘rinadiki mamlakatimiz bozorlaridagi un mahsulotlari 2021-yilda 2015-yilga nisbatan narxlari ikki barobardan ortiq o‘sganini ko‘rishimiz mumkin.

**3-jadval:** Namangan shahrida un mahsulotlariga talab va taklif dinamikasi tahlili<sup>2</sup>

No	Mahsulot turi	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
1	un mahsulotlarining bir odamga 1 oydagagi o‘rtacha iste’moli, (kg)	7,6	7,6	7,6	7,6	7,6	7,6	7,6
2	un mahsulotlariga 1 oydagagi o‘rtacha harajat, (ming so‘m)	14,5	14,8	15,0	16,0	28,0	30,0	34,2

1 Namangan viloyat statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

2 Namangan viloyat statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari



Namangan viloyatida fermer ho'jaliklari va korxonalar tomonidan aholini un mahsulotlariga bo'lgan talablarini xisobga olgan holda 2021-yilda g'alla 462912 tonna yetishtirildi, bu ko'rsatgich 2020-yilga nisbatan 110,1 foizga o'sgan bo'lsada, 2015-yilga nisbatan 95,7 foizni ya'ni 4,3 foizga kamaygan. Un mahsulotni ishlab chiqarish 2021-yilda 129595 tonna ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2020-yilga nisbatan 0,2 foizga, 2015-yilga nisbatan 14,0 o'sgan. Makaron mahsulotlarini ishlab chiqarish 2021-yilda 42000 tonnani tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 297,3 foizga, 2015-yilga nisbatan 279,6 foizga o'sgan. Non mahsulotlarini ishlab chiqarish 2021-yilda 141131 tonnani tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilga nisbatan 0,8 foizga o'sgan bo'lsa, 2015-yilga nisbatan esa 29,2 foizga kamaygan.

**4-jadval:** Namangan viloyatida g'alla, un va non mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili<sup>3</sup>

No	Yillar	G'alla (tonna)	Un (tonna)	Makaron (tonna)	Non (tonna)
1.	2015	483496	113622	15021	199200
2.	2016	492360	114905	15845	206805
3.	2017	466908	108965	15026	196115
4.	2018	471118	116362	11785	124987
5.	2019	481311	117318	14946	127431
6.	2020	441607	129563	14124	139980
7.	2021	462912	129595	42000	141131
8.	2021-yilda 2020-yilga nisbatan (%)	110,1	100,2	297,3	100,8
9.	5 yilda o'rtacha o'sish (%)	99,1	118,9	279,5	71,9

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda viloyatda faoliyat yuritayotgan korxonalarda un mahsulotlarini ishlab chiqarishda zamonaviy energiyani tejaydigan texnologiyalarni olib kelish hamda iste'molchilarga sifatlari va arzon mahsulotlarni yetkazib berish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Viloyatda sug'oriladigan va lalmi yerlarda g'alla yetishtirish, zamonaviy agrotexnologiyalardan foydalanish, agrotexnik tadbirlarga amal qilish orqali don hosildorligini oshirish, hamda, "urug'lik-don-un-non va non mahsulotlari" to'liq bog'liqligi bo'yicha ilmiy izlanishlarni muvofiqlashtirish, non va non mahsulotlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan yuqori sifatlari g'alla navlarini seleksiya qilish alohida e'tibor qaratilgan.

Mamlakatda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan hamkorlikda "O'zdonmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasi tizimidagi aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv organlari qarorlari asosida don korxonalari aktivlarni va ulushlarini investorlarga sotish ishlarini tashkil qilinmoqda.

Viloyatda un va non mahsulotlarini narxlarini talab va taklifga mutanosibligini ta'minlashda korxonalarni aholi ko'p yashaydigan hududlarda joylashtirish, aholining kunlik ehtiyojini to'liq qondirishga qaratilgan ish vaqtiga asosida, korxonaning o'zida yoki unga yaqin joylarda non va non mahsulotlari chakana savdosini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari dehqon bozorlari va aholi gavjum bo'lgan hududlarda keng assortimentdagi non va non mahsulotlarini sotish uchun non va non mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarga ixtisoslashgan (maxsus) savdo firma do'konlarini tashkil etish bo'yicha manzilli dasturlarni ishlab chiqildi.

Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan ichki iste'mol bozoridagi bug'doya bo'lgan talab va takliflardan kelib chiqib, davlat resurslari hisobidan birja savdolariga qo'yiladigan un hajmini muvozanatini ta'minlash orqali kunlik nazoratini amalga oshirilmoqda.

Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi, "Respublika tovar xomashyo birjasi" AJ bilan hamkorlikda don va un mahsulotlarini, shu jumladan, fermer xo'jaliklari ixtiyororda qolgan hamda importdan keltirilgan don va un mahsulotlarini sotish bo'yicha elektron birja savdolari tizimida alohida savdo platformasini joriy qilindi. Bu orqali un va un mahsulotlarini bozorlarda narxlarni talab va taklif orqali belgilashga erishish mumkin

<sup>3</sup> Namangan viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblar

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-soni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivoj-lantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022-yil 30-maydagi 284-soni "2022-yil hosilidan bug'doyni xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2016-yil 13-aprel 404-soni "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5 fevral 54-soni qarori (2003-yil 25-dekabrdagi 567-soni qaror asosidagi o'zgartishlar bilan) bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ish va xizmat) tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomi.
5. Bahriiddinov J.R. Market mechanisms and methods of price formation in the system of marketing of goods and services. International Journal of Research in Commerce, IT, Engineering and Social Sciences, Volume: 16 Issue: 07. 2022. –Pp. 60-69. (08.00.00; №23 SJIF 2022-6.973).
6. Bahriiddinov J.R. Marketing tizimida narxning o'rni va uni shakllantirishning xususiyatlari. "Biznes-Ekspert" Iqtisodiy ilmiy-amaliy nashr. Toshkent. 2022-yil. №7. –B. 66-69. (08.00.00; №3)
7. Bahriiddinov J.R. Tovar va xizmatlar marketingi tizimida narxlarni shakllantirishni tashkil etish. "Biznes-Ekspert" Iqtisodiy ilmiy-amaliy nashr. Toshkent. 2022-yil. №8. –B. 82-84. (08.00.00; №3)
8. Bahriiddinov J.R. Don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti. "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda, fan va ta'lif integratsiyasi, innovatsion texnologiyalarni tadbiq qilishda xalqaro fermerlarning roli" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman maqolalar to'plami. 2021 yil 18-23-noyabr. NamMTI. – B. 269-275.
9. Bahriiddinov J.R. Tovar va xizmatlar marketingi tizimida narxlarni shakllantirishning boshqaruv xisobini takomillashtirish. "Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyot va ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish: nazariya va amaliyat" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 15 aprel 2021 yil. –Toshkent: TMI. – B. 846-849.
10. Bahriiddinov J.R. Tovar va xizmatlar narxini shakllanishida xarajatlar xisobi va tovarlar va xizmatlar tannarxini hisoblashni takomillashtirish. "Banklarga moliyaviy mablag'larni jaib qilish va ularning innovatsion xizmatlari samaradorligini oshirish" respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. 2020-yil 06-iyun. –Toshkent: TMI. – B. 596-599.
11. Bahriiddinov J.R. Korxonalarning sotishdan tushgan sof tushum hajmiga ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsion koeffitsiyent ko'rsatkichlari tahili. "Yangi iqtisodiyot rivojanishi istiqbollari: global, mintaqaviy va milliy xususiyatlari" Respublika ilmiy-amaliy anjumanı materiallari to'plami. – T. TDIU: 2020-yil 21-aprel. – B. 281-287.
12. Boltabaev D.A., Ismoilov R.B., Mullabayev B.B., Bahriiddinov J.R. The state of development of small business and private entrepreneurship during the coronavirus pandemic. International engineering journal for research & development. 11 October, 2020. –Pp. 1-8. Vol.5 Special Issue. Impact factor: 6.549.
13. Boltabaev D.A., Ismoilov R.B., Baykhonov B.T., Bakhriiddinov A.R., Bahriiddinov J.R. Specific features and management methodology of small business and private entrepreneurship management. International engineering journal for research & development. 11 October, 2020. –Pp. 1-8. Vol.5 Special Issue. Impact factor: 6.549.
14. Boltabaev D.A., Ismoilov R.B., Abdulkakimov Z.T., Khosilov Q.Z., Bahriiddinov J.R.. Issues of small business and private entrepreneurship development. International engineering journal for research & development. 11 October, 2020. –Pp. 1-8. Vol.5 Special Issue. Impact factor: 6.549.
15. Ismoilov R.B., Mullabayev B.B., Usmanov R.K., Bahriiddinov J.R.. Conducting marketing research and developing them. Актуальные вопросы развития современного общества, экономики и профессионального образования. Материалы XVII Международной молодежной научно-практической конференции. Г.Екатеринбург, 24 марта 2021 г. Том 3. –С. 127-130.
16. Ismoilov R.B., Mullabayev B.B., Mahmudova N.G., Usmanov R.K., Bahriiddinov J.R. Use of modern marketing research in the context of market development. International engineering journal for research and development. 11 October, 2020. –Pp. 1-8. Vol.5 Special Issue. Impact factor: 6.549.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

